

**XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TA'RIFI**

**Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni**

(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobjiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'iga qo'yish va rivojlanadirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

**Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**


(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy  
shakli bo'yicha umumiy ma'lumot  
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**

**Tadbirkorlik  
subyektlari soni**


**Tadbirkorlik subyektlarining  
jamiga nisbatan ulushi**




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalanildi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarini tahlil qilish va prognozlashtirish.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)  
*birlikda*





## **Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** (1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan  
yilning shu davriga nisbatan **65,5** foizni tashkil etdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik,  
ovchilik va bu sohalarda  
xizmat ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi


■ Baliqchilik xo'jaligi




**Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxona va tashkilotlarning  
umumiy soni o'tgan yilning  
shu davriga nisbatan **65,6**  
foizni tashkil etdi*




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 241 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 65,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 63,6 % ni (jami sanoatdagi ulushi 89,7 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 63,6 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) tashkil etib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 100,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 8,1 %) tashkil etdi.


**Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan  
korxona va tashkilotlar soni**  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)




**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**



**Mikrofirmalar**




**Kichik korxonalar**





Mamlakatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 61,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 73,7 foizni tashkil etadi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 18,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,3 foizga oshgan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 20,6 foiz ulushni va 69,8 foizni tashkil etadi.



**Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)**



Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 9 943 tasi kichik biznes subyektlariga to‘g‘ri keladi.

Savdo sohasining yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo‘nalishi 68,6 foiz ulushni tashkil etgan bo‘lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda o‘sish sur’ati 84,2 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo‘nalishida 23,1 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 107,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta’mirlash yo‘nalishida 8,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati 90,6 foizni tashkil etdi.



## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat

ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

- Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

**757**




- Yashash uchun joy bilan ta’milangan holda parvarishlash

**18**




- Yashash uchun joy bilan ta’milnagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish


**12**




*Kichik tadbirkorlik subyektlari soni*



*Mikrofirmalar*



*Kichik korxonalar*



Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 651 ta yoki 82,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelgan.


Yo‘nalishlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatdiki:

96,2 foiz korxonalar sog‘lijni saqlash yo‘nalishiga to‘g‘ri kelib, o‘sish sur’ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 97,4 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta’milangan holda parvarishlash yo‘nalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etib, o‘sish sur’ati 94,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta’milnagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish yo‘nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,5 foizini tashkil etib, o‘sish sur’ati 66,7 foizni tashkil etdi;


**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni  
(2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)**




**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**



**Mikrofirmalar**



**Kichik korxonalar**



**138**  
yashash bo'yicha xizmatlar




**1 440**  
oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan 132,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:


- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 8,7 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'naliشining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 91,3 foiz ulushini tashkil etdi.

**Kichik tadbirdorlik subyektlari soni**  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko 'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko 'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar  
to'g'risida ma'lumot  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)**

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat** – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlarini bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlarini qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlarini bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

**Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**



2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 26 035 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 15 427 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdoda – 36,1 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 21,6 foiz, qurilish – 10,8 foiz, sanoat – 10,1 foizni tashkil etdi.

## **Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda**

**Xususiy korxona** – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxona o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.


### **Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**



## **Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda**


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra 3 277 etdi.

### **Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida**



## Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot

(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)



Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra 276 tani tashkil etib, ulardan 151 tasi yoki 54,7 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 20 taga yoki 7,8 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2024- yilning yanvar-mart oylarida viloyatimizda 10 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo




Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish




Sog‘lijni saqlash va Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokida  
korxonalar va tashkilotlar soni**  
(2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda)

■ O’sish sur’ati ■ 2024- y. ■ 2023- y.




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni  
(2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, birlikda)**

|                      | Jami | <i>shundan:</i> |                 |
|----------------------|------|-----------------|-----------------|
|                      |      | Qo‘shma korxona | Xorijiy korxona |
| Qashqadaryo viloyati | 151  | 90              | 61              |
| G‘uzor               | 11   | 6               | 5               |
| Dehqonobod           | 10   | 7               | 3               |
| Qamashi              | 5    | 3               | 2               |
| Qarshi               | 6    | 3               | 3               |
| Koson                | 7    | 6               | 1               |
| Kitob                | 9    | 6               | 3               |
| Mirishkor            | 8    | 4               | 4               |
| Muborak              | 16   | 5               | 11              |
| Nishon               | 8    | 5               | 3               |
| Kasbi                | 6    | 1               | 5               |
| Ko‘kdala             | 3    | 1               | 2               |
| Chiroqchi            | 7    | 6               | 1               |
| Shahrisabz           | 5    | 2               | 3               |
| Yakkabog‘            | 8    | 6               | 2               |
| Qarshi sh.           | 40   | 28              | 12              |
| Shahrisabz sh.       | 2    | 1               | 1               |

## *Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy iqtisodiy holati*

Davlatlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital  
ishtirotidagi korxonalar to‘g‘risida ma’lumot  
2024- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, birlikda



Yetakchi o‘rinni 33 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu viloyatda xorijiy kapital ishtirotida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,9 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 15,9 foiz), Afg‘oniston (ulushi 9,9 foiz), Turkiya Respublikasi (ulushi 9,9 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 4,6 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

## **Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar usidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo’lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24- avgustdagisi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.